

*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovana*

Annotatsiya: Maqolada fransuz tili materiallari asosida ekvivalent va ekvivalent bo'lmagan frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishning turli usullari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, to'liq ekvivalentlar, qisman ekvivalentlar, ekvivalent bo'lmagan frazeologik birliklar, tavsiflovchi tarjima.

Frazeologik birikmalar tarjimasi murakkablik kasb etadi. Frazeologik birikmalar o'z va ko'chma ya'ni obrazli turg'un birikmalarga bo'linadi. Ko'chma ma'noli turg'un birikmalar tarjimada o'ziga xos xususiyati bilan ma'lum tarjima prinsiplariga tayanishni talab etadi. Bunday frazeologizmlarni tarjima qilishda avvalo komponentlardan mazmunni anglash zarur. Bunda ma'no frazeologizmdagi ma'lum so'zdan emas, unda qatnashgan so'zlar yig'indisidan anglashiladi. Frazeologizmlar asliyat matnini bo'yoqdorligini ta'minlaydi va bu stilistik bo'yoqdorlik tarjima matnida ham saqlanishi lozim bo'ladi. Tarjimon bu holatda frazeologik birliklarni tarjima tilida adekvatlarini topib qo'llashga joiz bo'ladi.

Tarjima nazariyasi bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to'rtta usuli borligi haqida maTumot beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash;
- 2) obrazni qisman o'zgartirish;
- 3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;
- 4) tarjimada obrazni butunlay saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish[1].

Odatda tarjimada universal va internatsional so'zlar shundayligicha saqlanadi. Bunday frazeologik birliklar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan boladi. Masalan, “Aller comme le vent” - “shamolday uchib bormoq”. Bu misolda frazeologimlar ikkinchi tildagi ekvivalenti deb yurirtiladi. Chunki bu tarjimada qiyinchilik tug'dirmaydai va so'zma-so'z mos keladi.

Ba'zan frazeologik birliklarni qanday bo'lsa shundayligicha saqlab qolish kuzatiladi. Bu kalkalash usuli bo'lib, bunda frazeologizm hamma uchun tushunarli bo'lishi talab etiladi.

Frazeologik birliklarni kalkalash ularni oddiy so'z birikmalarga aylantirib qoyadi. Bu matnni bo'yoqdorligiga ta'sirini tarjima matnni qanchalik muvofaqqiyatli chiqishiga bo'g'liq. Masalan, se mettre le fil à la patte - turmush qurmoq; au premier chant du coq - tong sahardan; être cousu d'or - o'ta boy bo'lmoq (fr. oltindan tikilgan bo'lmoq) kabi. Bunday hollarda tarjimada yo vaziyat yo kontekstga alohida e'tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so'zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma'nosini, emotsional – ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur har bir til o'z doirasidagi so'zlarni o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini o'rganish, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko'rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lum hollarda esa, frazeologizmlar turli tillarda turlicha ifodaga ega bo'lsada mazmun bir xil bo'ladi. Bunda tarjimada unga mos adekvat birliklar olibadi va ular tarkibidagi mavjud farq inobatga olinmasligi mumkin. Agar zarur bo'lsa, frazeologizm tarkibi biroz o'zgarishi kuzatiladi. Masalan: C'est simple comme bonjour-hamirdan qil sug'urganday ma'nosiga tog'ri keladi, Il pleut comme vache qui pisse - chelaklab yomg'ir quyaypti ma'nosiga to'g'ri kelgani kabi. Ikki misolda fransuz va o'zbek frazeologik birliklari o'rtasida muqobilik yo'qdek ko'rinadi.

Chunki birlikning birorta so'zi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, biroq frazeologik birlikda ifodalangan obraz deyarli bir xil ma'noni anglatgan.

Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birliklari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari va shu kabilarni aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o‘zbeklar “tuyaning dumi yerga tekkanda”, “qizil qor yoqqanda”, “xapshanba kuni” deganda inglizlar “quand les cochons volent” frazeologik birligini qo‘llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar bir-biriga, ayniqsa “tuya, qizil qor hamda xapshanba” butunlay to‘g‘ri kelmasada, “hech qachon sodir bo‘lmaydigan ish-harakat, voqea” asosiy fikr hisoblanadi. Frazeologik birliklar tarkibidagi aksariyat so‘zlar esa ikkinchi darajali unsur sifatida qo‘llangan. Bu yerdagi asosiy vazifa asliyatdagi frazeologik birlikka tarjima tilida xuddi shu fikmi ifodalagan va xuddi shunday stilistik ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un birikma topish. Misollardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birliklarning ekvivalentlari yo‘q bo‘lganda, ayni obraz qo‘llanmaganda obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi.

Frazeologizmlar tarjimada doim ham mos kelavermaydi. Ularning mos kelmslik holati noekvivalentlik xisoblanib, bunda tarjimon tavsiflovchi tarjimadan foydalanadi. Noekvivalent tarjima so‘z birikmaga teng kelib qoladi. Afsuski, izohlovchi, tavsiflovchi tarjima stilistik bo‘yoqdan uzoqlashadi. Ko‘pincha tavsiflovchi tarjima etimologik eslatma bilan birga keladi

Masalan: régime de faveur – eng maqbullik printsiipi; aller comme un Basque-juda tez yugurish; faire son petit Saint-Jean-o‘zini sodda ahmoq sifatida tutish; s'en moquer comme de l'an quarante-masxara qilish.

Frazeologik birlikni bir tildan boshqasiga tarjima qilishda quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

1. Tarjima qilishning eng yaxshi varianti to‘liq frazeologik ekvivalentni topishdir, ammo frazeologik ekvivalentlarning mavjudligi turli tillarda cheklanganligi xisobga olinadi.

2. Agar stilistik va hissiy rang mos keladigan bo‘lsa, frazeologik birliklarni tarjimada biz ikkinchi o‘rinni qisman frazeologik ekvivalentlarga ajratamiz.

3. Ekvivalentlar bo‘lmagan taqdirda, agar ichki shakl tarjimon tilida so‘zlashuvchi tomonidan qabul qilinsa, so‘zma-so‘z tarjimaga yoki kalkalashga ruxsat beriladi.

4. Agar yuqoridagi usullar asl frazeologik birliklarni tarjima qilish uchun mos bo‘lmasa, unda quyidagilar qo‘llaniladi: a) ta’riflovchi tarjima yoki frazeologik birliklarning, b) bir so‘zli ekvivalentlari.

5. Milliy rangdagi frazeologik birliklar milliy rangga ega bo‘lmagan tarjima tilidagi frazeologik birliklarga etkazilishi kerak.

6. Frazeologik birliklar ikki tilli lug‘atlardan foydalanib, lug‘at har doim ham tushunarli bo‘lgan ekvivalentlar va ma’nolarni bermasligini yodda tutish kerak[2].

Xulosa qilib, frazeologik birliklar milliy xususiyat kasb etganligi sabab tarjimada alohida jarayon xisoblanishini aytilish mumkin. Agar yuqoridagi tahlillarga tarjimada frazeologizm mos kelmasa, bunday hollarda frazeologik iborani kontekstdan chiqarib, uning ma‘nosini bosuvchi birliklar qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov TARJIMA NAZARIYASI. - Toshkent 2012 -216 b.

2. В.А. Лавриненко О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА РУССКИЙ ЯЗЫК (НА МАТЕРИАЛЕ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА) file://o-perevode-frazeologicheskikh-edinits-na-russkiy-yazyk-na-materiale-frantsuzskogo-yazyka.pdf.

3. Mumtoza, A., & Munosibxon, I. (2023). COMMUNICATION IS THE BASIS OF THE COMMUNICATIVE METHOD. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 194-196.

4. Ишанжанова, М., & Кўчқарова, О. МАКОН ИФОДАЛОВЧИ ДЕЙКТИК БИРЛИКЛАРНИНГ МОРФОЛОГИК ТАДҚИҚИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ

ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Заҳриддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети, 270.

5. ИШАНЖАНОВА, М. ШАХС ДЕЙКСИСИНИНГ НУТҚИЙ МУЛОҚОТДА ИФОДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. ИLMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (1), 92-95.